

HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Xamidov Asilbek Alisher o'g'li

Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini yanada takomillashtirish masalalariga, shuningdek, tizimdagi mavjud muammolar va ularning yechimlariga, bu sohadagi xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, muvofiqlashtirish, ommaviy tartibsizliklar, favqulodda holat, blok-aut, milliy xavf indeksi, xavf omillari.

Аннотация. В статье особое внимание уделяется вопросам дальнейшего совершенствования деятельности правоохранительных органов по охране общественного порядка и обеспечению общественной безопасности, а также существующим проблемам в системе и их решениям, опыту зарубежных стран в этой области.

Ключевые слова: общественный порядок, общественная безопасность, координация, массовые беспорядки, чрезвычайное положение, блэк-аут, национальный индекс риска, факторы риска.

Abstract. The article pays special attention to the issues of further improving the activities of law enforcement agencies in maintaining public order and ensuring public safety, as well as existing problems in the system and their solutions, and the experience of foreign countries in this area.

Keywords: public order, public safety, coordination, mass riots, emergency, black-out, national risk index, risk factors.

O'zbekistonda "Uchinchi renessans" davrida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, insonlarda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligiga mas'ullik hissini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning mavjud tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Xavfsiz shahar" [1], "Obod va xavfsiz mahalla" [2], "Xavfsiz xonadon" [3], "Xavfsiz turizm" [4] kabi xavfsizlikni samarali ta'minlashga qaratilgan yangi modellar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Amalga oshirilgan mazkur islohotlar natijasida, O'zbekiston 2024-yilda "World Justice Project" xalqaro NNTning "Huquq ustuvorligi indeksi"da 140 dan ortiq davlatlar orasida Rossiya, Xitoy va Turkiya kabi yetakchi mamlakatlarni ortda qoldirdi va 83 o'rinni egallab, bir yil oldingi natijadan 7 pog'ona yuqorilagan.

Shunday samarali islohotlarga qaramasdan, hozirgi davrda dunyoda yuz berayotgan turli xil inqiroz va ziddiyatlar, yildan-yilga yangilanib, rivojlanib va kuchayib borayotgan tinchlik hamda xavfsizlikka nisbatan bo'layotgan tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen tusdagi ofatlar fonida davlat oldida turgan eng asosiy masala – jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi barqarorligini saqlash,

shuningdek shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomil-lashtirish hamda zamon talablariga mutanosib ravishda tadrijiy modernizatsiya qilishdan iborat.

O'z navbatida, bunday salbiy hodisa va jara-yonlar fuqaro muhofazasiga mas'ul bo'lgan davlat tuzilmalariga favqulodda va alohida vaziyatlarga doimo tayyor turish hamda o'z faoliyatini takomil-lashtirib borish vazifasini yuklamoqda.

Shu sababdan ham jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish va ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlaridan faoliyatlarini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" [5] va "Xalq xizmatidagi davlat" [6] tamoyillariga asosan tashkil etishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon etilganlar mazmun-mohiya-tidan anglashiladiki, mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'na-lishlaridan biriga aylandi. Bunday islohotlar, avvalo, huquqni muho-faza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan boshlandi.

Jumladan, 2016-yil 16-sentyabrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida" va 2020-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'ri-sida"gi qonunlar qabul qilinib, ularning vazifalari belgilab qo'yildi. Bu esa jamoat tartibini saqlovchi va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi ikki organ faoliyatini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev-ning 2021-yil 29-noyabrda qabul qilgan Farmoni asosida sohaning bosh konseptual hujjati, ya'ni "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"ning qabul qili-nishi bilan huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining hamkorligi hamda ushbu yo'-nalishdagi vazifalari belgilab berildi. Qolaversa, davlat organlari *jamoat xavfsizligini ta'minlovchi* va ushbu faoliyatda *ishtirok etuvchi* subyektlar sifatida tasniflandi.

Davlat rahbarining 2018-yil 10-yanvar-kuni Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashining ken-gaytirilgan yig'ilishida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi

organlar faoliyatiga e'tibor qaratib, "bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas'ul va javobgar etib belgilanadi" [7], deb e'tirof etishi hamda yuqoridagi hujjatlarda mazkur organlarning vazifalari belgilanishi bilan sohaga oid asosiy mas'uliyat ushbu ikki organ zimmasiga yuklatildi.

So'nggi yillarda dunyoning turli hududlarida jamoat joylari va boshqa ko'pchilik to'planadigan maydonlarda sodir etilayotgan jinoyatlar, shu jum-ladan terrorchilik aktlari ko'plab insonlar o'limiga, katta miqdorda moddiy va ma'naviy zarar yetka-zilishiga olib kelmoqda. Bu esa jamoat joylari bunday hujumlarning asosiy sodir etilish obyekti bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, 2017-yil 22-mart kuni Londonda (Buyuk Britaniya) yengil avtomashinaning Vestmin-ster ko'prigida insonlarni bosib ketishi [8] oqibatida 5 kishi, 2019-yil 21-aprel kuni Kolombo va boshqa shaharlarda (Shri-Lanka) bo'lib o'tayotgan Pasxa bayramida sodir etilgan [9] portlashlarda 321 kishi, 2019-yil 15-mart kuni Vellingtondagi (Yangi Zelan-diya) masjidda uyushtirilgan [10] ommaviy otish-mada 51 kishi va 2024-yil 22-mart kuni Moskva (Rossiya)dagi "Crocus city hall" ko'ngilochar majmuasida sodir etilgan [11] qurolli hujumda 133 kishi halok halok bo'lganligi ushbu fikrning isbotidir.

Mazkur holatlarning rivojlangan yoki xavfsizlik imkoniyatlari kuchli davlatlarda sodir etilishi jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash naqadar qiyin ekanligi va hech bir davlat bunday hujumlardan to'liq himoyalanmaganligini yana bir bor ko'rsatib berdi.

Shunday hodisalardan biri bo'lgan va Qora-qalpog'iston Respublikasida 2022-yil 1–2-iyul kunlari sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kundalik, vaziyat murakkablashgan va favqulodda vaziyatlarda hamkorlik qilishi hamda harakatlarni muvofiq-lashtirish mexanizmlari samaradorligi pastligini ko'rsatib berdi. Bu esa 18 nafar inson o'limiga, 243 kishi turli darajada tan jarohati olishiga, 6,8 mlrd AQSH dollari miqdorida moddiy zarar yetkazi-lishiga olib keldi [12]. Bunday holatlarning yuz berishi jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsiz-ligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar

hamkorligini muvofiqlashtirish naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor namoyon qildi.

Shu sababli, O'zbekiston huquqni muhofaza qiluvchi organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi hamkorligini yanada kuchaytirish va muvofiqlashtirish davlatning muhim vazifasiga aylandi. Shu o'rinda, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "*Jamoat xavfsizligiga yangi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza qilish idoralari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur*" [13], deb bejizga aytmaganligi bu fikrning isbotidir.

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash naqadar murakkab va dolzarb vazifa ekanligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" (90-maqsad), "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (16-maqsad) va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (87-maqsad) kabi konseptual va strategik hujjatlarda bu yo'nalishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini kuchaytirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish o'z aksini topdi.

Ikkinchidan, jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar soni oshib bormoqda. Jumladan, bunday jinoyatlar 2022-yilda 23 748, 2023-yilda 24 936 va 2024-yilda 26 741-marta sodir etilib, umumiy jinoyatchilikning 20,2 foizini tashkil etgan [14]. Jamoat joylaridagi qotillik va badanga shikast yetkazish kabi og'ir jinoyatlar ko'payib, qotillik 2024-yilda 58 tadan 80 taga (37,9 %), badanga shikast yetkazish jinoyatlari 236 tadan 261 taga (10,6 %), ko'chalarda sodir etilgan qotillik 47 tadan 55 taga (17 %), badanga shikast yetkazish jinoyatlari 175 tadan 194 taga (10,9 %) oshgan.

Uchinchidan, jamoat tartibi va xavfsizligini buzishga qaratilgan terroristik hujumlarning oqibatlari og'irlashib bormoqda. Bunga yuqorida keltirilgan Moskva va boshqa shaharlarda sodir etilgan ayancli holatlar misol bo'la oladi.

To'rtinchidan, jamoat tartibini guruh bo'lib buzish holatlari va unda ishtirok etuvchilar soni ortib

bormoqda. So'nggi yillarda, shu jumladan 2023-yilda Respublika miqyosida ijtimoiy muammolarni siyosilashtirish maqsadida yo'llarni yopib qo'yish va shu kabi boshqa ko'rinishlarda jami 3911 nafar fuqaro ishtirokida 208 ta jamoat tartibiga xavf tug'diruvchi norozilik harakatlari sodir etilgan va 85 ta norozilik harakatlarining oldi olingan bo'lsa, 2024-yilning o'zida 494 ta norozilik harakatlarining oldi olingan.

Beshinchidan, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanilmayapti. Bevosita jamoat tartibini ta'minlovchi Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya o'rtasida vazifalar samarali taqsimlanmagan, bir hududda faoliyat yurituvchi ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlarining o'zaro hamkorligi yetarlicha emas. Shu bilan birga, ular o'z ustuvorliklariga ega bo'lganligi sababli jamoat tartibi to'liq ta'minlanmayapti. 2024-yilda IIV va MG bo'linmalari hamkorligi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida oldi olinishi mumkin bo'lgan 320 ta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilgan.

Mavjud ma'lumotlar tahlili respublika huquqni muhofaza qiluvchi organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatida ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va zamonaviy yagona boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish borasida bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, Davlat rahbarining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 29.11.2021yildagi farmoni bilan tasdiqlangan "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" va "2022–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi"da ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishining oldini olish asosiy vazifalardan biri deb belgilangan bo'lsa-da, qonunosti hujjatlari asosan favqulodda holat yuzaga kelganda (*postfaktum*) harakat qilishga qaratilgan bo'lib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari e'tibordan chetda qoldirilgan. Jumladan, suv havzalari, dambalar, atom energetika stansiyalari, "blek aut" holatlari, ob-havoni yomonlashuvi, sel kelishi, irq, millat va tilga nisbatan mansabdorlar tomonidan ayirmachilikka yo'l qo'yilishi, narx-navoning keskin oshishi va boshqa 30 dan ortiq omillar turli darajadagi tartibsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, 2023-yilda Fransiyada bo'lib o'tgan pensiya islohotiga qarshi norozilik harakatlari ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketgan edi.

Shu sababli mazkur va shunga o'xshash xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlar qanday omillar natijasida shakllanishi, ushbu omillar haqidagi ma'lumotlarni ishlab chiquvchi va baholovchi tashkilotlarni aniqlash hamda ularning Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti (keyingi o'rinlarda Departament) bilan muntazam axborot almashinuvin ta'minlash lozim bo'ladi.

Bundan tashqari, jahonda yuz bergan inqirozli holatlar tahlili, hududida ommaviy tartibsizliklar sodir etilgan davlatlar uni har qancha tez bartaraf etmasin, katta miqdorda moddiy-moliyaviy va ma'naviy zarar ko'rganligi, dunyo hamjamiyatining salbiy qiziqishini uyg'otib, turli sanksiyalar ostida qolganligini ko'rsatadi.

Misol uchun, Qozog'istonda aholi noroziligini keltirib chiqargan muammo qisqa muddatda bartaraf etilgan bo'lsa-da, tartibsizliklar uzoq vaqt davom etib, davlatga 221 mln, tadbirkorlarga esa 89,7 mln AQSH dollari miqdorida zarar keltirdi.

Ikkinchidan, jamoat tartibi va xavfsizligi bilan bog'liq bir qator ma'lumotlarni shakllantirishning aniq tavsifi, mezon va indikatorlari mavjud emasligi Departament (*sohada muvofiqlashtiruvchi asosiy tuzilma*)ga haqiqiy holatga mos kelmaydigan ma'lumotlar kelib tushishiga olib kelishi mumkin.

Misol uchun, norozi kayfiyatdagi shaxslar, jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlar, yoshlar va xotin-qizlar ro'yxatlari biron aniq mezon-siz shakllantirilmoqda va yuritilmoqda. Ya'ni, amaldagi normativ-huquqi hujjatlarda qanday holatlarni xavf deb topish va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shakllantirishning metodikasi tartibga solinmagan. Shu sababli jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdid soluvchi xavflar, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va boshqa zarur ma'lumotlarni aniqlash yoxud shakllantirish hamda baholash bo'yicha yagona mezonlar va indikatorlar ishlab chiqilishi, xavf va tahdidlarni yanada barvaqt aniqlash va bartaraf etish imkoni beradi. Bu esa mazkur parametrlar faqatgina subyektiv xarakterga ega bo'lib qolishi, natijada noto'g'ri va asoslantirilmagan ma'lumotlar asosida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarasiz chora-

tadbirlar amalga oshirilishiga hamda salbiy qarorlar qabul qilinishiga, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'ri yo'lga qo'yilmasligiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha umumiy, tarmoq (*sohalar*) va hududiylik bo'yicha jamoat tartibiga tahdid tug'diruvchi indekslar ishlab chiqilmagan. Buning natijasida jamoat tartibiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning ijtimoiy xavfliligini baholash yetarli darajada amalga oshirilmay kelinmoqda.

Misol uchun, AQSHda FEMA (Xavf va favqulodda holatlar darajasini baholash agentligi) tashkiloti tomonidan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jinoyatchilik, tibbiyot, tabiiy ofatlar va boshqa 18 ta yo'nalish bo'yicha "Milliy xavf indeksi" (National Risk Index) yuritiladi va shtatlar xavfning 8 ta darajasi bo'yicha toifalarga ajratiladi [15]. Yoki, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Yevropa mamlakatlarida biror turdagi kasallik aniqlansa yoki tarqalsa, aniq mezonlar asosida "umumiy xavf darajasi past, o'rta va yuqori" kabi darajalar hududlar kesimida e'lon qilinib boriladi (O'zbekistonda bunday amaliyot yo'q).

Ushbu misollarda ko'rsatilganidek, davlatda umumiy, tarmoq va hududiylik bo'yicha xavf indekslarini ishlab chiqish vujudga kelayotgan xavflarni barvaqt aniqlash, ularga tashxis qo'yish, xavflarni joylashuvi bo'yicha blokada qilish orqali boshqa hududlarga tarqalib ketishining oldini olish hamda bartaraf etish yuzasidan aniq va manzilli chora-tadbirlar ko'rish, shuningdek, kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni prognoz qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, jamoat tartibi va xavfsizligiga oid 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari, shu jumladan, alohida tadbirlarning maxsus rejalari tarqoqligi hamda yagona boshqaruvning yo'qligi ularni amaliyotga tatbiq etishda bir qancha qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Misol uchun, saylovga oid qonun hujjatlari Saylov kodeksiga, davlat byudjetiga oid hujjatlar Byudjet kodeksiga birlashtirilib, sohaga oid yagona hujjat yaratilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizligiga taalluqli bo'lgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar tarqoqligicha qolmoqda. Bu esa ulardan samarali foydalanish hamda yanada takomillashtirishni qiyinlashtirib qo'ymoqda. Bunga

asosiy sabab esa ularning har birida alohida-alohida funksiyalar va vazifalar belgilanganligi, sohaga oid qaror qabul qilish jarayonida bir holat yuzasidan bir necha qonun hujjatlariga murojaat qilishga majburlik sabab bo'lmoqda. Shu sababli, sohaga oid qonunchilik hujjatlarini birlashtirish normalar takrorlanishining oldini olish bilan birga, muayyan vaziyat bo'yicha tezkor qaror qabul qilishga yordam beradi. Qolaversa, maxsus rejalarni ishga tushirish, kuch va vositalarni tezkor boshqarish va muvofiqlashtirish vazifalarini yagona organga yuklatish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorligi samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatida tizimli ravishda aholi kayfiyati va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o'rganish bo'yicha ishlar yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Buning natijasida ijtimoiy muammolarning siyosiy lashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan turli ko'rinishdagi kichik norozilik harakatlari sodir etilmoqda. Bu esa mavjud xavfning oldini olish o'rniga, jamoat tartibi va xavfsizligi buzilib bo'lganidan hamda vaziyat nazoratdan chiqib ketganidan so'nggina harakatlanishga majbur qilishi mumkin.

Misol sifatida, yuqorida keltirilganidek, qo'shni Qozog'istonda aholining yoqilg'i narxi qimmatlashuviga nisbatan munosabati va o'sha paytdagi kayfiyati vaqtida o'rganilganida "qonli yanvar" voqealarining oldi olingan bo'lar edi.

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda aholining kayfiyati juda muhim. Ularning kayfiyati va jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan ham ijobiy ham salbiy maqsadlarda foydalanish mumkin. Bunga yuqoridagi holat yaqqol misoldir. Ammo bu sohada O'zbekistonda ko'riladigan chora-tadbirlar qoniqarli emas. Bunda, asosan, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining "kunlik va davriy vaziyat bo'yicha bildirgisi" hamda mazkur organlarning vazifalarini amalga oshirishi jarayonida aniqlangan holatlarga asosan aholining kayfiyati va ijtimoiy-siyosiy vaziyat bo'yicha axborot to'planadi. Shunday bo'lsa-da, bu ma'lumotlar juda subyektiv bo'lib, doim ham haqiqiy vaziyatga to'g'ri kelavermaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning "Aql markazlari" va boshqa jamoatchilik fikrini o'rganuvchi tashkilotlar

hamkorligini o'rnatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilmasligi jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni prognoz qilish va ularning oqibatida kelib chiqadigan salbiy holatlarning oldini olishni murakkablashtirishi, ommaviy tartibsizliklar vaqtida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni qiyinlashtirishi, zamonaviy xavf va tahdidlarga qarshi barvaqt kurashish faoliyatini samarasiz qilib qo'yishi, oldi olinishi mumkin bo'lgan xavflarning oldi olinmasligiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kungi zamonaviy dunyoda ommaviy tartibsizliklarning oldini olish jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashning muhim shartidir. Shu sababli sohani ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida takomillashtirish, davlat organlari hamkorligini mustahkamlash davr talabi bo'lib qolaveradi.

Mazkur holatlarni inobatga olgan holda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

Birinchi muammo bo'yicha:

– jahon amaliyotini chuqur tahlil qilgan holda O'zbekistonda "jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi omillar ro'yxati"ni shakllantirish;

– mazkur omillar haqidagi ma'lumotlarni yurituvchi (*ishlab chiquvchi*) mutasaddi idoralarni jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi (*ko'maklashuvchi*) subyektlar sifatida e'tirof etib, Departament qoshidagi Yagona idoralararo boshqaruv shtabiga tahlil qilish, baholash va prognoz uchun uzluksiz ma'lumot berib borishini belgilash.

Ma'lumot uchun, yuqoridagi farmonda subyektlar 2 ga bo'lingan: jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar.

Ikkinchi muammo bo'yicha:

– jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash subyektlari tomonidan qanday elementlar va holatlar (*qaysi chegaraga yetganida*) xavf deb baholanishiga aniqlik kiritish va tartibga solish;

– subyektlar tomonidan taqdim etilayotgan 40 dan ortiq turdagi ma'lumotlarni shakllantirish tartibi, mezoni va manbalarini aniqlash;

– “3-xolis taraf”ning ma’lumotlari bilan taqqoslash orqali subyektlar tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlar to’g’riligiga baho berish algoritmi (*metodi*)ni ishlab chiqish

Misol uchun, biror-bir tumanda bandlik markazining ishsizlar soni haqida bergan ma’lumotlarini faoliyatini to’xtatgan korxonalarning ishchilari soniga (soliq organlaridan olinadi) taqqoslash orqali uning to’g’riligiga baho berish mumkin.

Uchinchi muammo bo’yicha:

– umumiy, tarmoq (*sohalar*) va hududiylik bo’yicha “*Milliy xavf indeksi*”ni ishlab chiqib, e’lon qilib borish hamda Departament tarkibida ushbu xavf darajalarini avtomatik baholab borish va instansiyaga kiritish bilan bog’liq vazifalarni bajaruvchi tuzilmani tashkil etish;

– xavf darajasiga muvofiq Departament tomonidan kuch-vositalarni taqsimlash va rejimni o’zgaritib borish amaliyotini joriy qilish.

To’rtinchi muammo bo’yicha:

– o’xshash munosabatlarni tartibga soluvchi jamoat tartibi va xavfsizligiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni yagona hujjatga birlashtirish;

– mavjud kuch-vositalarni boshqarish va hamkorlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish vazifasini Departamentga yuklash.

Beshinchi muammo bo’yicha:

– AQSH (*Gallup*) va Rossiya (*VTSIOM*) tajribasini inobatga olib, shartnoma yoki davlat xususiy sherikchilik asosida tizimli ravishda aholi o’rtasida ularning “kayfiyati”ni va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o’rganish bo’yicha tizimli so’rov o’tkazib, tahlil qilib borish. So’rovnoma predmeti Departament buyurtmasi asosida shakllantiriladi va “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o’rganish markazi va boshqa xususiy markazlar tomonidan Departament mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Vazirlar Mahkamasining “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo’yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to’g’risida”gi 343-son qarori. Lex.uz. QMMB. 07.05.2018-y. <https://lex.uz/ru/docs/3730048>.
2. Vazirlar Mahkamasining “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 801-son qarori. Lex.uz. QMMB. 30.11.2024-y. <https://www.lex.uz/docs/7243832>.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo’riqlanishini ta’minlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4060-son qarori. 12.12.2018 y. https://static.norma.uz/official_texts/%D0%9F%D2%9A4060,%2012.12.2018%20%D0%B9.pdf.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4229-son qarori. Lex.uz. QMMB. 06.03.2019-y. <https://lex.uz/docs/4229310>.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-27-son farmoni. Lex.uz. QMMB. 29.11.2021-y. <https://lex.uz/docs/5749291?ONDATE=25.10.2024&action=compare>.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida”gi PF-158-son farmoni. Lex.uz. QMMB. 11.09.2023-y. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
7. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig’ilishi. 11.01.2018-y. Prezident matbuot xizmati. <https://www.president.uz/uz/lists/view/1419>.
8. Теракт на Вестминстерском мосту в Лондоне (2017). 22.03.2017-y. <https://www.bbc.com/russian/news/50599487>.
9. “Shri-Lankada qonli teraktlar” nomli maqola. 21.04.2019-y. <https://sputniknews.uz/20190423/Shri-Lankadagi-onli-teraktlar-ortida-kim-turgani-malum-bldi-11328301.html>;
10. “Branton Tarrant hech qachon qamoqdan ozod etilmaydi” nomli maqola. 15.03.2019 y. https://www.nzherald.co.nz/nz/christchurch-mosque-attack-sentencing-brenton-tarrant-will-never-be-released-from-jail/XQKXNMMIHVL7XGQNSCC6HJZSQI/?c_id=1&objectid=12359688.
11. “Moskvadagi konsert zalidagi terakt qurbonlari soni 133 kishiga yetdi”. 23.03.2024-y. <https://www.nytimes.com/live/2024/03/23/world/moscow-shooting>.
12. “Sh.Mirziyoyev Nukusdagi voqealarda halok bo’lganlarning yaqinlariga hamdardlik bildirdi”. Prezident matbuot xizmati. 06.07.2022-y. <http://uza.uz/kr/news/2022/07/06/shavkat-mirziyoyevnukusdagi-voqealarda-halo-k-bolgan-larning-yaqinlariga-hamdardlik-bildirdi>
13. Davlat rahbarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar va kuch tuzilmalari rahbarlari ishtirokida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari yuzasidan yig’ilishidagi nutqidan. Prezident matbuot xizmati. 29.03.2024-y. <https://president.uz/uz/lists/view/7125>.
14. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligining “O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” nomli hisoboti. 2024-y. https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3707&Itemid=1000000000000.
15. Amerika Qo’shma Shtatlaridagi tabiiy xavf indeksi xaritasi. <https://hazards.fema.gov/nri/learn-more>.